

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Abduxalimov	
Andijon viloyatida sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatidan.....	213
F.K.Yusupjanova	
Turli tizimli tillarda "head/bosh/ голова" somatik komponenti bilan makallarning qiyosiy-tipologik o'rganish	217
F.M.Mamadjanov	
Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari.....	227
M.Komilova	
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'limga jalb qilish.....	233
A.A.Abduxalimov	
Namangan viloyatidagi shifoxonalar faoliyati va ularning moddiy-texnik holati.....	239
I.R.Asqarov, M.M.Akbarova, Z.A.Smanova	
Portulaca oleracea o'simligining kimyoviy xossalari	242
S.M.Isroilova	
Muloqot qilish rus tilini oqitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish.....	249
Sh.V.Djalolov	
Umumta'lim maktab tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va organizmning funksional holatining monitoringi.....	253
A.A.Qambarov	
Marg'ilonlik katta ashula darg'alari.....	260
D.T.Samatov	
Falsafa fanini o'qitishda multimedaviy storitellingdan foydalanishning samaradorligi.....	265
A.U.Azimov	
Yuksak axloqiy yoshlarni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining o'rni	269
A.A.Ahrorqulov	
Oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash.....	275
D.A.Mamajonova	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiya va korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchalari.....	279
M.M.Mamadaliyeva	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavflar tahlili	282
U.O'.Musoyev	
Buxoro xonligida yer egaligi munosabatlari va ularning xududiy tavsifi.....	286
D.Y.Tashnazarov	
Yunon-rum kurashchilarini texnik usullarga o'rgatishda umumiy va maxsus tayyorgarligi	291
M.M.Alimova	
Ikkinchi jahon urushi arafasida mehnat intizomi (Buxoro viloyati)	299
R.Sh.Bozorova	
Gidropoetonimlarning onomastik birliklar tizimidagi o'rni.....	303
E.X.Zoyirov	
Ya'qubi Charxiyning "Tafsiri" da pir-murshid tushunchasi	307
A.S.Inomov	
Ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar strategiyasi.....	311
I.S.Aslonov	
O'zbekistonning mustamlakachilik davrida savdo va transport yo'llari tarixi	316
B.M.Jo'raquziev	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy siyosat masalalari	320
O.Radjabov	
Qirg'izistonda temir yo'llar tarixi	324
Y.Shukurillaev	
Sho'ro Rossiyasi tomonidan Buxoro amirligining bosib olinishi jarayonida to'plagan razvedka ma'lumotlari tahlili	330
M.M.Mamatkodiurov	
Maktablarda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini yaratish uchun asosiy tizimli komponentlar.....	333
M.Sh.Qoraboeva	
Islom falsafasida intellektual faoliyat mezonlariga doir qarashlar tahlili	338

GIDROPOETONIMLARNING ONOMASTIK BIRLIKLAR TIZIMIDAGI O'RNI
ОНОМАСТИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ ГИДРОПОЭТОНИМА МЕСТО В СИСТЕМЕ
ONOMASTIC UNITS OF HYDROPOETHONYM PLACE IN THE SYSTEM

Bozorova Rufina Sharopovna¹

¹**Bozorova Rufina Sharopovna**

— Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Jahondagi barcha xalqlar kabi nemis va o'zbek tillarida gidronimlar deb ataladigan suv bilan bog'liq tabiat hodisalari, suv havzalari va inshootlari nomini atab keluvchi onomastik birliklar yaxlit bir tizimni tashkil qiladi. Agar ular badiiy matnda poetik maqsad yo'lida qo'llansa, gidropoetonim darajasiga ko'tariladi. Gidropoetonimlar qo'llanishi shoir va yozuvchi – ijodkorning poetik mahorati bilan bog'liq. Ular tabiatda o'z-o'zidan mavjud okean, dengiz, daryo, ko'l singarilarni bir-biridan farqlash, identifikatsiyalash, qayd etishdan tashqari turli ko'chma ma'nolarda kelganda har biri makro va mikrosemantik maydonlarni hosil qilishi kuzatiladi.

Аннотация

Как и у всех народов мира, ономастические единицы, называемые связанные с водой явления природы, водные объекты и сооружения, называемые в немецком и узбекском языках гидронимами, образуют целую систему. Если они используются с поэтической целью в художественном тексте, они поднимаются на уровень гидропоэтонима. Употребление гидропоэтонимов связано с поэтическим мастерством поэтов и писателей. Помимо дифференциации, идентификации и регистрации таких явлений, как океан, море, река и озеро, которые существуют сами по себе в природе, замечено, что, когда они имеют разные переносные значения, каждый из них создает макро- и микросемантические поля.

Abstract

Like all nations of the world, the onomastic units that name water-related natural phenomena, water bodies and structures, which are called hydronyms in German and Uzbek languages, form a whole system. If they are used for a poetic purpose in an artistic text, they rise to the level of hydroponym. The use of hydroponyms is related to the poetic skills of poets and writers. In addition to differentiating, identifying, and recording things like the ocean, sea, river, and lake that exist by themselves in nature, it is observed that when they come in different figurative meanings, each of them creates macro and microsemantic fields.

Kalit so'zlar: poetonimologiya, poetonim, gidropoetonim, makrosemantik maydon, mifopoetonim, oykopoetonim, urbopoetonim, xoropoetonim

Ключевые слова: поэтонимия, поетоним, гидропоэтоним, макросемантическое поле, мифопоэтоним, ойкопоэтоним, урбопоэтоним, хоропоэтоним

Key words: poetonym, poetonym, hydroponym, macrosemantic field, mythopoetonym, oikopoetonym, urbopoetonym, choropoetonym.

KIRISH

Kishilik jamiyati tarixida suv eng zarur ehtiyoj manbai sifatida qadrlanib kelingan. Suv yerdagi eng oddiy va dastlabki suyuqlik bo'lishi bilan birga barcha tirik organizmlar, mavjudotlar va insonlar uchun eng muhim hayotiy unsur hisoblanadi. Haqiqatan ham, suv tabiat va inson mavjudligi hamda tiriklikni belgilovchi mo'jiza, beqiyos ne'matdir.

Hozirgi kunda ham suv ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarini uchun eng muhim hayotiy ahamiyatga ega tabiatning noyob unsuri bo'lib, odamlarning kundalik ehtiyojidan tortib iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, xususan, qishloq xo'jaligi va sanoat korxonalarini, shuningdek, ekologik muvozanatni saqlashda hayotiy resurs hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda insoniyat hayotidagi tabiiy ofatlar, suv toshqinlari, suv yetishmovchiligi, suv resurslarining ifloslanishi va transchegaraviy daryolar muammolari dunyo xalqlarini yana bir bor ushbu ne'matga jiddiy e'tibor berishga undamoqda.

NATIJA VA MUHOKAMA

Jahonning turli mintaqalari va madaniyatlarida suv universal ramziy vazifalarni bajarib kelmoqda. U suyuq, qattiq va bug' ko'rinishida doimo harakatda bo'lib, ummon, dengiz va daryolarni paydo qiladi, yulduzlar nuri ostida o'z tusini o'zgartiradi, issiqlik ta'sirida bug'ga aylanadi

yoki ko'zgu singari predmetlar va jonli mavjudotlarni o'zida aks ettiradi. Suv o'simliklarga jon bag'ishlab, kishilar va hayvonlarning tashnaligini qondiradi, insonlarning sabr-matonatini sinaydi, ularga sog'lik-salomatlik, shifo beradi.

Tarixga nazar solinsa, o'tmishda suv masalasi murakkab muammo bo'lganligi bois katta bahs-tortishuvlar, hatto urushlarga sabab bo'lganligi haqida manbalar guvohlik beradi. Qolaversa, ko'plab olimlar, shoiru adiblar tabiatning ushbu bebaho ne'matiga bag'ishlab ko'plab asarlar yozgan. Buyuk shoir Alisher Navoiyning qarashlariga ko'ra, inson vujudi tabiat jismlari singari o't, suv havo va tuproqdan tashkil topgan. Shu bilan birga, unda hissiyot, ruh va aql mujassam bo'lib, ruhiy hayot o'sha to'rt unsurdan iborat bo'lgan jismlar tomonidan harakatga keladi[1]. Mavlono Jaloliddin Rumiy suvning barcha tirik organizmlar, nabotot (o'simliklar) va insonlar uchun behad muhimligiga alohida e'tibor qaratib:

Suv sadosi bongi Isrofil erur,
Tirgizur hatto o'lik jonlarni ul[2],

–deb yozgan edi.

Darhaqiqat, suvsiz hayot bo'lmaydi. Jazirama saratonda tashnalik azobini chekayotgan odam bir qultumgina suv uchun bor boyligini berib yuborishga ham rozi bo'lishi bilan bog'liq ko'plab hayotiy misollarni keltirish mumkin. Ma'lumki, yer sharidagi barcha tirik organizm iste'mol qiladigan ozuqaning 80 – 90 foizi suvdan iborat bo'lib, inson hayoti davomida taxminan 35 tonna suv ichadi. O'z navbatida, inson tanasining 70 – 75 foizi, uning hayot faoliyatini boshqaradigan miyaning 90 foizi, qonning 95 foizi suvdan tashkil topgan[3].

Suvsiz hayotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Suv barcha tirik mavjudotlar uchun muhim ahamiyatga ega. Yer yuzasining qariyb 71 foizi ushbu tabiiy element bilan qoplangan. Shundan atigi bir foizga yaqini inson hayoti uchun bevosita zarur bo'lgan chuchuk suvdur. Inson tanasining ham taxminan 70 foizi suvdan iborat. Suv hayot uchun zaruriy shartdir. Ushbu zaruriylikni erta rivojlangan sivilizatsiyalarning suv yaqinida paydo bo'lganligi bilan izohlash mumkin: misrliklar Nil daryosi, bobilliklar Furot va Dajla, xitoyliklar Xuanxe, hindistonliklar esa Hind daryosi yaqinida paydo bo'lishgan. Barcha madaniyatlarning rivojlanishiga suv bilan to'qnashuvlar chuqur ta'sir ko'rsatgan.

Suvning madaniy tarixida Xartmut Bo'hme suvni "mutlaq hodisa" deb ataydi, chunki uning fikricha, insonning keng ko'lamlari o'lchamlari-tarix, madaniyat, ekologiya, shuningdek, tana va ruh-bu element bilan belgilanadi. Unda nafaqat tabiatshunoslar va ekologlar, balki diniy va adabiyotshunos olimlar, psixanalist va madaniyat tadqiqotchisi ham ishlaydi [4]. Nihoyat, suv fanlararo tadqiqotlarning markazi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Jahondagi barcha xalqlar tilida suv bilan bog'liq tabiat hodisalari, turli suv havzalari va inshootlari nomini atab keluvchi onomastik birliklar (gidronimlar) tizimi mavjud bo'lib, badiiy matnda ular gidropoetonim darajasida ijodkorning poetik mahoratini namoyon etishga xizmat qiladi. Bu esa gidronim va gidropoetonimlarning til va nutqdagi ifoda imkoniyatlarini nafaqat bir, balki turli til tizimi doirasida qiyosiy aniqlash, ular shakllanishining nominatsion-motivatsion asoslarini har bir xalq tarixi, ma'naviy-madaniy qadriyatlarini bilan birgalikda o'rganish muhimligini ko'rsatadi.

Dunyo tilshunosligida onomastik birliklarning badiiy matndagi poetikasini o'rganishga qiziqish hamisha yuqori bo'lgan. Bunday qiziqish gidropoetonimlar bilan ham bog'liq. Turli onomastik birliklar qatori gidropoetonimlarning tilda leksik-semantik, milliy-madaniy, badiiy matnda esa etnolingvistik, lingvostilistik, lingvopoetik xususiyat kasb etishini asoslash, har xil tizimli nemis va o'zbek tillari doirasida nomlanishining motivatsion asoslarini yoritish, tarjima jarayoniga daxldor ekvivalentlik, adekvatlik parametrlarini aniqlash zarur masalalardandir.

Poetonimologiya –poetonimlar bilan shug'ullanadigan onomastikaning bir bo'limi nomidir. Onomastika esa biror tildagi atoqli otlar majmui yoki tilshunoslikning atoqli otlar haqidagi bo'limi nomihisoblanadi.

Gidropoetonim (yunoncha "suv" va poetonim) – topopoetonimning bir turi bo'lib, matnda ta'kidlab o'tilgan voqe'likdagi mavjud bo'lgan suvli ob'yekt nomini bildirib keladi. Topopoetonim esa (yunoncha "joy" va poetonim) – badiiy matnda tilga olingan aniq geografik hududga mos keluvchi joy nomi. Topopoetonimlar, o'znavbatida, gidropoetonimlar, mifopoetonimlar, oykopoetonimlar, urbopoetonimlar, xoropoetonimlarga bo'linadi. Yer yuzasining katta qismini suvliklar tashkil qilgani sababli gidropoetonimlar ham topopoetonimlarning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi.

Gidropoetonimlar poetik onomastikaga xos terminlardan biridir. U til va adabiyot integratsiyasi mahsuli sifatida yuzaga chiqishi tufayli lingvopoetik hodisa sifatida qaralib, onomastika sohasiga tegishli hisoblanadi. Shuning uchun gidropoetonimlarni lingvo+poetika birligiga asoslangan tamoyillar asosida o'rganishga to'g'ri keladi. Chunki gidropoetonimlar ham boshqa onomastik birliklar qatori lingvopoetik jihatdan muayyan vazifalarni bajarishga xoslangandir.

Agar gidropoetonimlar lingvopoetik tamoyillar asosida tahlil va tadqiq qilinsa, ular badiiy matnda:

birinchidan, badiiy-estetik ta'sirchanlikni yuzaga keltirish;
ikkinchidan, salbiy yoki ijobiy ma'noni yuzaga chiqarish;
uchinchidan, allyuziv nom sifatida matnni shakllantirish hamda intertekstuallikni ta'minlash;
to'rtinchidan, satirik ifodani yaratish;
beshinchidan, inson ruhiy holati yoki vaziyatini, umuman, ifodalanayotgan voqelikni baholash, unga ekspressiv, emotsional hamda intensiv munosabatni ifodalash;
oltinchidan, ijodkor uslubini belgilash,
yettinchidan, asar mohiyatini anglash va anglatish maqsadida ritorik murojaat bilan chiqish maqsadlarida qo'llanishi ayonlashadi.

Gidropoetonimlar badiiy matn bilan bog'liq hodisalar sifatida, odatda, ijodkor badiiy maqsadiga muvofiq qo'llanadi va bunda turli ekspressiv, intensiv xususiyatlarini namoyon etadi. Shu bilan o'zining muayyan badiiy yukka, poetik qimmatga ega ekanini ko'rsatadi. Bundan anglashiladiki, badiiy matndagi tabiiy hodisalarni ifodalab kelgan har qanday so'z yoki nom emas, balki ijodkor badiiy niyatini yoritishga xizmat qilgan suv nomlarigina gidropoetonim hisoblanadi.

Shunday qilib, muayyan suv nomlarini anglatib, uni atab keluvchi hamda ijodkor badiiy niyati, sub'ektiv munosabatiga muvofiq poetik vazifaga yo'naltirilgan bunday leksik birliklar "gidropoetonimlar" deb ataladi. Ular boshqa onomastik birliklar kabi badiiy matnda onomastik metafora, allyuziv nom, "so'zlovchi" nom kabi lingvopoetik vazifalarda keladi.

Gidropoetonimlar leksik-semantik va estetik-stilistik jihatdan alohida xususiyatlarga ega. Ijodkorlar ular orqali o'zlarining tabiat olamiga munosabatini ham ifodalaydilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Har qanday tilning ma'naviy boyligini, negizi va nafosatini undagi so'zlarbelgilaydi. Shu sababli so'zlarni barcha mutafakkirlar javohirlarga, marvarid va durlarga qiyos qilishadi. Har bir tilning qanchalik boy va serqirraligi, birinchi navbatda, mana shu so'z-durlarning miqdori bilan belgilanadi. Tilshunoslar so'zlarni ikki ulkan guruhga tasnif qilishlari lozim: turdosh otlar va atoqli otlar. Turdosh otlar borliqdagi narsalar, voqea va hodisalar haqidagi tushuncha va tasavvurlarni umumlashtirib ataydi. Chunonchi, «suv» so'zi har qanday suvlikning umumiy nomidir. Shuningdek, «okean», «dengiz» va boshqa so'zlar ham har qanday katta va kichik suv havzasining umumlashma nomidir. Umumlashtirish, umumlashma mushohada yurita olish inson tafakkurining ulug' mo'jizasi, fikrlash tojidir. Ammo insonning hayotiy ehtiyoji, tabiatning serqirra sirlarini bila borish qadimda inson uchun borliqdagi neki narsalar, ob'ektlar, voqea va hodisalarni hatto odamlarning o'zini bir-biridan farqlash, alohida ajratish, ya'ni ularga alohida maxsus nom berish ehtiyojini tug'dirgan. Natijada tilda juda qadim davridayoq tilshunoslar fanda atoqli otlar deb yuritladigan so'zlar yuzaga kela boshlagan. Atoqli otlar alohida, yakka holda olingan narsalar, jug'rofiy ob'ektlar va hodisalar uchun berilgan maxsus nomlardir. Agarda turdosh otlar narsa va hodisalar uchun berilgan tushunchani umumlashtirib, mujassamlab atasa, atoqli otlar yakkalab, bir-biridan ajratib, farqlab ataydi.

«Daryo» so'zi o'zbek tilida har qanday daryolarning umumiy nomidir, ammo Germaniyadagi Reyn, O'zbekistondagi Zarafshon, Amudaryo, Sirdaryo, Qoradaryo, Oqdaryo, Qashqadaryo va Surxondaryo so'zlari esa alohida daryolarning atoqli otidir. Ko'rinadiki, atoqli otlarning asosiy vazifasi bir turdagi narsalar, joylar o'rinlarini bir-biridan farqlash, ajratishga xizmat qilishdir.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, gidropoetonimlar, avvalo, gidropoetonimologiya makro ko'lamini hosil qiladi. Keyin esa uning mikromaydonlari: suv havzalari (ummon, dengiz, daryokabi) hamda suv inshootlari (ombor, kanal, hovuz, quduq singari) yuzaga chiqadi. Shu o'rinda gidropoetonimlar suvliklarning umumiy va ko'chma nomini bildirishga xizmat qiladi. Ko'pincha yirik

makro guruhdagi gidropoetonim mayda ma'noviy guruhchalar shakllanishiga olib kelgan. Til va nutqda suv havzalari va inshootlari nomlari semantikasi, suv analoglari o'z o'rniga, mazmun-mohiyatiga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. 6-jild. Xamsa. Hayratul-abror. – Toshkent, 1965. – B. 218.
2. Jaloliddin Rumi. Hikmatlar / Forsiydan Jamol Kamol tarjimai. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 18.
3. Андреев Ю. А. Вода заместника Бога на Земле. – Санкт-Петербург: Питер, 2008. – С. 7.
4. Böhme, Hartmut: Kulturgeschichte des Wassers. Main: Suhrkamp 1988. S. 19.
5. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии / Н. В. Подольская. – М.: Наука, 1978. – 200 с.; <http://imja.name/poetonim/termin-poethonim.shtml>
6. Bozorova R.Sh. Interpretation of poetonims in the novel by Johann Wolfgang Goethe "The sufferings of young Werther" //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2019. – Т. 1. – №. 12. – С. 182-185.
7. Sharopovna B.R. A Comparative Study of Hydropoethonym //Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 92-94.
8. Bozorova R.Sh. Tarjima san'ati va uning muammolari //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 29. – №. 29.
9. Бозорова Р. Ш. "Сув" сўзи билан боғлиқ фразеологик бирликларнинг немис, ўзбек ва рус тилларидаги таҳлили //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 277-282.
10. Бозорова Р. Ш. Сув билан боғлиқ жой номларининг лисоний қатламлари таҳлили //Results of National Scientific Research International Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 112-118.
11. Jurakulovich, S. J. (2023). The role of the national idea in increase of human values. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(10), 1160-1164.
12. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF SCIENTIFIC THINKING AND MENTAL DEVELOPMENT IN IMPROVING HUMAN DEVELOPMENT AND VALUE. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(9), 251-261.
13. Shodiyev, J. J. (2023). THE ROLE OF THE NATIONAL IDEA IN INCREASE OF HUMAN VALUES. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 616-625.
14. Bozorova R. S. Interpretation of poetonims in the novel by Johann Wolfgang Goethe "The sufferings of young Werther" //scientific bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 12. – С. 182-185.
15. Bozorova R. Гидропозетонимларнинг немис, ўзбек ва рус тилларидаги фразеологик бирликларда акс этиши //Центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2022. – т. 26. – №. 26.